MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari..... 714 Aslanova Malohat Akramovna</p> <p>Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida..... 718 Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi</p> <p>Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish 721 Ne'matova Diyora Dilshod qizi</p> <p>Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati 725 Pirimova Nargiza Adilovna</p> <p>Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi..... 728 Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</p> <p>Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari 733 O'tahanova Manzura G'ofurovna</p> <p>Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context..... 736 Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</p> <p>Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni . 749 Altibayeva Malika Kuvandikovna</p> <p>Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari 752 Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</p> <p>Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar 757 Shukurova Nargiza Ikramovna</p> <p>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati 762 Xudoyberdiyev Sh. M.</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari..... 766 Esanbekova Fotima G'ayratjonovna</p> <p>Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин) 770 Багирова Паринисо Бобировна</p> <p>Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar..... 775 Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi</p> <p>Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili 780 Toshtemirova Nigora Ibrohimovna</p> <p>Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari 784 Tovoshova Ozoda Akmal qizi</p> <p>Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish..... 789 Kaxarova Ozoda Abdimominovna</p> <p>Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri... 793 M. B. Pulatova</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili 796 Maraimova Muxtabar Pulatovna</p> <p>Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari..... 801 Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna</p>
-------------------------------------	---



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish	818
<i>Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	

MUNDARIJA SOÐERJANIE CONTENTS

Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish	896
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
Sultonova Nurxon Anvarovna	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari	907
Tolipova Shohista Quدرات qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli	911
Turg'unova Gulzoda Botir qizi	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari	916
Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari	919
Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari	923
Xalikova Zaxro Mirshadmanovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi	927
Yoqubova Gulhayo Erkin qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	931
Bilolov Inomjon O'ktamovich	
Karatening kelib chiqish tarixi	934
Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar	937
Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abdulolim qizi	
Родительские установки и развитие личности	941
Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи	

PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KARYERA LOYIHALASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Djalolova Sevara Xolmurodovna

Samarqand viloyat pedagogik mahorat markazi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy karyerani loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Unda pedagogik amaliyotning nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda kasbiy faoliyatni ongli rejalashtirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning o'z imkoniyatlarini baholash va kasbiy yo'nalishini aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish ilmiy asosda izohlangan.

Kalit so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, pedagogik amaliyot, kasbiy ko'nikma va malaka, o'qituvchilik faoliyati, kasbiy karyera, karyerani loyihalash, gnostik, konstruktiv, tashkilotchilik kompetensiyalari.

Abstract: This article examines the formation of professional career planning skills in future teachers during pedagogical practice. It analyzes the role of pedagogical practice in applying theoretical knowledge, developing professional competencies, and consciously planning professional activity. The study also substantiates the development of self-assessment skills and the ability of future teachers to determine their professional direction.

Key words: professional training, pedagogical practice, professional skills and competencies, teaching activity, professional career, career planning, gnostic, constructive, organizational competencies.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования навыков проектирования профессиональной карьеры у будущих учителей в процессе педагогической практики. Проанализировано значение педагогической практики в применении теоретических знаний на практике, развитии профессиональных компетенций и осознанном планировании профессиональной деятельности. Также научно обосновано формирование у будущих учителей навыков самооценки и определения профессионального направления.

Ключевые слова: профессиональная подготовка, педагогическая практика, профессиональные навыки и умения, педагогическая деятельность, профессиональная карьера, проектирование карьеры, гностические, конструктивные, организаторские компетенции.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyoti hamda barcha sohalarda kechayotgan globallashuv jarayonlari natijasida yuz berayotgan sifat va tarkibiy o'zgarishlar har bir shaxsdan, ayniqsa bo'lajak mutaxassislardan, o'z kasbiy faoliyatini ongli ravishda rejalashtirish va izchil rivojlantirishni talab etmoqda. Mazkur jarayonlar shaxsning kasbiy karyerasiga yangicha yondashuvni shakllantirish, unga moslashish hamda zamon bilan hamnafas holda rivojlanish zaruratini dolzarb etmoqda.

Rivojlanib borayotgan O'zbekistonda ta'lim sohasiga davlat siyosati darajasida ustuvor e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637 sonli Qonunning¹ yangi tahriri ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim normativ-huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni² bilan tasdiqlangan oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/-5013007>.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son <https://lex.uz/docs/-4545884>.



Farmoni³ asosidagi Taraqqiyot strategiyasi, 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son⁴ hamda 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmonlari⁵ ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan kompleks islohotlarni o'z ichiga oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida pedagogik amaliyot nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni integratsiyalash, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda pedagogik mahoratni oshirishda muhim omil sifatida keng o'rganilgan. Jumladan, I.A. Egamberdiyeva, O'.H. Tolipov, N.V. Kuzmina, Z.F. Esarova, M.G. Davletshin, M. Abdullajonova, T. Hamroqulov va boshqa olimlar pedagogik amaliyotni tashkil etishning zamonaviy metodikasi va tizimini ilmiy jihatdan tadqiq etganlar.

Pedagogik amaliyotning bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rnini, shuningdek, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda samarali qo'llash masalalari ham ilmiy tadqiqotlarda atroflicha yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning ta'lim jarayonidagi majburiy tarkibiy qismi bo'lib, u talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida turli xil amaliyot turlari tashkil etilib, ular orasida pedagogik amaliyot alohida o'rin tutadi^[5].

Pedagogik amaliyot bo'lajak mutaxassisni kasbiy tayyorlash tizimining asosiy va muhim bo'g'ini hisoblanadi. U talabani nazariy ta'limi bilan kelgusidagi mustaqil kasbiy faoliyati o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi hamda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi muhim jarayon sifatida dastlabki tajriba maktabi vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, pedagogik amaliyot o'quv-pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, namunaviy va ishchi o'quv rejaları asosida tashkil etiladi hamda uning mazmuni amaliyot turiga qarab, tegishli kafedralar tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar asosida amalga oshiriladi. Mazkur jarayon odatda o'quv mashg'ulotlaridan ajratilgan holda tashkil etilib, uning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga puxta tayyorlash, egallangan bilimlarni amaliyotda sinovdan o'tkazish, pedagogik faoliyat mas'uliyatini anglash hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar o'qituvchi kasbiga qiziqish uyg'otadi, pedagogik faoliyat mohiyatini yaxlit tarzda anglaydi, zarur kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaydi hamda pedagogik faoliyat bo'yicha dastlabki amaliy tajribaga ega bo'ladi^[6]. Shu jihatdan, pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatga qo'ygan ilk qadami sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, pedagogik amaliyot kasb ta'limi yo'nalishlari uchun qo'llanilib, pedagogik mahoratni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi aynan pedagogik amaliyot jarayoni bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois, pedagogik amaliyotning eng muhim vazifalaridan biri bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini samarali shakllantirishdan iboratdir (1-rasm.)



1-rasm: Pedagogik amaliyotning samaradorlik ko'rinishlari

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.04.2025 yildagi PF-73-son <https://lex.uz/uz/docs/-7499721>.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida bo'lajak o'qituvchilardan nafaqat fan bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish, balki o'z kasbiy faoliyatini ongli ravishda rejalashtira olish, ya'ni kasbiy karyerasini loyihalash ko'nikmasiga ega bo'lish ham talab etilmoqda. Mazkur ko'nikmaning shakllanishida pedagogik amaliyot muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kasbiy karyerani loyihalash bo'lajak mutaxassisning o'z kasbiy maqsadlarini aniq belgilashi, ularga erishish yo'llarini rejalashtirishi hamda shaxsiy imkoniyatlari va mehnat bozori talablarini inobatga olgan holda rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishini anglatadi. Bo'lajak o'qituvchilarda ushbu ko'nikmaning shakllanishi faqat nazariy ta'lim bilan cheklanib qolmay, balki amaliy faoliyat jarayonida yanada samarali rivojlanadi.

Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarga real ta'lim muhitida o'zini sinab ko'rish, kasb mohiyatini chuqur anglash hamda o'z kasbiy yo'nalishini aniqlashtirish imkonini beradi. Amaliyot jarayonida talaba o'qituvchilik kasbining ijtimoiy ahamiyati, mas'uliyati va murakkab jihatlarini bevosita kuzatadi. Bu esa unda kasbiy o'zini anglash va kelajak faoliyatini ongli ravishda rejalashtirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Masalan, pedagogik amaliyot davomida dars o'tayotgan talaba o'zining kommunikativ qobiliyatlari, sinfni boshqarish mahorati hamda pedagogik vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Agar talaba o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnata olsa, bu holat uning kelajakda sinf rahbari yoki metodist sifatida faoliyat yuritishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga moyillik sezilgan taqdirda, u o'z karyerasini ilmiy-pedagogik yo'nalishda rejalashtirishga intiladi.

Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar o'tkazgan darslarini tahlil qilish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali o'z kasbiy rivojlanish yo'nalishini belgilashni o'rganadilar. Jumladan, amaliyot rahbari bilan birgalikda dars tahlili olib borish jarayonida talaba o'zining kuchli va rivojlantirishni talab etuvchi jihatlarini anglab, kelgusida zarur kompetensiyalarni shakllantirish yo'nalishlarini belgilaydi.

Bundan tashqari, pedagogik amaliyot davomida ta'lim muassasalaridagi tajribali o'qituvchilar faoliyatini kuzatish bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim kasbiy namuna vazifasini bajaradi. Ular ustozlarning dars o'tish uslubi, innovatsion yondashuvlari va kasbiy o'sish yo'llarini kuzatish orqali o'z karyera rejasini shakllantiradilar. Masalan, amaliyotchi talaba o'qituvchining metodik faoliyati va malaka oshirishdagi faolligini kuzatib, kelajakda metodik qo'llanmalar yaratish yoki trener-o'qituvchi sifatida faoliyat yuritishni maqsad qilib qo'yishi mumkin.

Umuman olganda, pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyerani loyihalash ko'nikmasini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. U nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, kasbiy o'zini anglash, refleksiya hamda ongli kasbiy rejalashtirish jarayonlarini ta'minlaydi. Shu bois pedagogik amaliyotni mazmunan boyitish va uni kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan holda tashkil etish bo'lajak o'qituvchilarning raqobatbardosh va mas'uliyatli mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik amaliyoti jarayonida zarur bo'lgan asosiy omillardan biri kasbiy bilimdir. Kasbiy bilim aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan ishlar uchun zarur bo'lgan axborotlar hamda o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlar majmuini ifodalaydi. Kasbiy ko'nikma va malakalar esa amaliy faoliyat jarayonida shakllanib, shaxsning egallagan bilimlarini ongli ish harakatlariga aylantirishdagi avtomatlashtirilgan usullar sifatida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni joriy etish, jumladan, interfaol metodlar va ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish amaliyot samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, pedagogik amaliyotning tizimliliigi, ya'ni uning turlari (tanishuv, kuzatuv, mustaqil dars), bosqichlari va boshqaruv mexanizmlarining ilmiy asosda tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik amaliyot davomida o'qituvchining psixologik-pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Mazkur jarayon bo'lajak o'qituvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantirish, sinfdagi o'quv jarayonini samarali boshqarish, darslarni rejalashtirish, pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Amaliy tajriba ularga o'z kasbiy faoliyatini baholash, pedagogik strategiyalarni tanlash va takomillashtirish imkonini beradi. Natijada talabalar professional rivojlanishning dastlabki bosqichlarini bosib o'tadilar, kasbiy identifikatsiya shakllanadi hamda kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan yetakchilik va tashkiliy ko'nikmalar rivojlanadi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy tajriba jarayonida talabalar o'z kasbiy faoliyatini sinab ko'rish, o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish hamda dars jarayonini boshqarish orqali o'z kasbiy yo'nalishlariga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytiradilar. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini mustahkamlab, kasbiy identifikatsiyaning shakllanishiga xizmat qiladi.



Shu bilan birga, pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilar uchun nafaqat kasbiy malakalarni rivojlantirish, balki o'quv muhitiga moslashish va kasbiy motivatsiyani oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Amaliy tajriba jarayonida ular professional shaxs sifatida shakllanib, pedagogik kompetensiyalarini mustahkamlaydilar hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'qituvchilar faoliyatida quyidagi kasbiy malakalar muhim hisoblanadi (2-rasm)



2-rasm: O'qituvchilarning kasbiy malakalari

Gnostik (yunoncha "gnosis" – "bilish") malakalar o'qituvchining bilim sohasiga taalluqli bo'lib, o'quvchilarning individual-psixologik rivojlanish darajasini aniqlay olish, o'zining pedagogik faoliyatiga refleksiv yondashish, ilg'or tajribalarni o'rganish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash, pedagogik-psixologik adabiyotlardan samarali foydalanish, shuningdek, empatiya va pedagogik ziyraklik kabi sifatlarni o'zida mujassam etadi.


Konstruktivlik (loyihalash qobiliyatiga egalik) o'qituvchining pedagogik jarayonni metodik jihatdan to'g'ri loyihalashtirishi va samarali tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi. Bunda ta'lim jarayoni natijalarini prognoz qilish, o'quv-tarbiya jarayonini maqsadli loyihalash, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni aniq belgilash hamda darsning texnologik tuzilmasini puxta ishlab chiqish bilan bog'liq malakalar nazarda tutiladi.

Kommunikativlik pedagogning muhim kasbiy xususiyatlaridan biri bo'lib, u o'quvchilar va hamkasblar bilan samarali hamkorlik muloqotini yo'lga qo'yishni anglatadi. Bunda o'qituvchining o'quvchilarni jalb eta bilishi, ular hamda ota-onalar bilan muloqotni tashkil etishi, boshqarishi va nazorat qilishi, pedagogik-psixologik jihatdan maqsadga muvofiq o'zaro munosabatlarni shakllantirishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish pedagogik faoliyat muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri bo'lib, bu ko'p jihatdan o'qituvchining kommunikativ ko'nikma va malakalarni muntazam rivojlantirib borishiga bog'liqdir.

Tashkilotchilik o'qituvchining o'quvchilar jamoasini samarali tashkil eta olishi, jamoani jipslashtira bilishi, o'quvchilarning bilish faolligini oshira olishi hamda ilg'or pedagogik g'oyalarni amaliyotga tatbiq eta olishi bilan tavsiflanadi [7]. Pedagogik amaliyotni tizimli tashkil etish va uning uslubiy ta'minotini yaratish kasbiy moslashuv jarayonining muhim tashkiliy-metodik shartlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida nazariy bilimlarni mustahkamlash hamda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyerani loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida talabalar bilan maxsus trening mashg'ulotlari tashkil etildi. Ushbu treninglar talabalarning kasbiy maqsadlarini aniqlash, o'z imkoniyatlarini baholash, kasbiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirildi.

Trening mashg'ulotlari davomida interaktiv usullar, guruhli ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va refleksiv faoliyat elementlaridan samarali foydalanildi. 3-rasmda o'tkazilgan trening turlari keltirilgan.



3-rasm: Tadqiqot davomida olib borilgan treninglar

Olib borilgan trening mashg'ulotlari bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga, shuningdek, kelajakdagi kasbiy karyerasini loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi. Mazkur mashg'ulotlar shaxsiy rivojlanish, akademik va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish, psixologik, jamoaviy hamda innovatsion va ijodiy yo'nalishlarda tizimli ravishda tashkil etildi.

Shaxsiy rivojlanish treninglarida talabalar o'z-o'zini anglash, ichki motivatsiyani oshirish, vaqtni samarali boshqarish hamda maqsadlarni aniq belgilash ko'nikmalarini egalladilar. Ular SMART maqsadlar konsepsiyasi asosida faoliyatlarini rejalashtirishni o'rganib, liderlik va yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirdilar.

Kasbiy-pedagogik mashg'ulotlarda taqdimot ko'nikmalari, ilmiy izlanish usullari hamda kasbiy malakalarni shakllantirish bilan bir qatorda, SWOT tahlil metodi orqali o'z kuchli va rivojlantirishni talab etuvchi jihatlarni aniqlash hamda kelajakdagi faoliyatni strategik rejalashtirish imkoniyatlari kengaytirildi.

Psixologik treninglar stressni boshqarish, ichki motivatsiyani mustahkamlash va o'ziga ishonchni oshirish, shuningdek, muloqot va konfliktlarni samarali hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirildi. Bu esa talabalarning ruhiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

Jamoaviy mashg'ulotlar esa muloqot, hamkorlik, liderlik va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirib, talabalarning guruhda samarali ishlash va mas'uliyatni anglash kompetensiyalarini shakllantirdi.

Innovatsion va ijodiy treninglarda muammolarga noodatiy yondashuv, kreativ fikrlash hamda yangi g'oyalar va yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlari rivojlantirildi. Shuningdek, 80/20 qoidasi (Pareto prinsipi) asosida faoliyatning eng muhim jihatlarni aniqlash va samarali natijalarga erishish tamoyillari o'zlashtirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyerani loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. U talabalar uchun o'z imkoniyatlarini obyektiv baholash, kasbiy faoliyatni ongli rejalashtirish hamda zarur pedagogik malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash orqali kasbiy tajriba orttirish imkonini yaratadi. Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarning raqobatbardosh va yetuk mutaxassis sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Pedagogik amaliyot samaradorligini yanada oshirish maqsadida uni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, amaliy mashg'ulotlar ulushini kengaytirish hamda individual rivojlanish rejalari (IDP)ni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, talabalarning reflektiv tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mentorlik tizimini kuchaytirish zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan keng foydalanish, shuningdek, kasbiy karyera rejalashtirishga yo'naltirilgan maxsus treninglarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va raqobatbardoshligi yanada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – QHMMB, 03/20/637/1313–son, 2020–yil 24–sentabr. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 8–oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030–yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5847–son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 28–yanvardagi "2022–2026–yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60–son Farmoni. – QHMMB, 06/22/60/0082–son, 2022–yil 29–yanvar. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: PF–73–son Farmon. – Toshkent, 2025–yil 28–aprel. <https://lex.uz/ru/docs/-7499721>.
5. Usarov J.E., Babaxodjayeva L.G., Sharipova G.N., Eshnaye N.J. Pedagogik kompetentlik: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Malik Print Co", 2021.
6. Safarova R.G. Tarixiy hamda zamonaviy tajribalarni uyg'unlashtirgan holda o'qituvchining kasbiy tafakkurini rivojlantirishning madaniy modellari // "Zamonaviy ta'lim talablari sharoitida pedagogik ta'lim sifati" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2023–yil 29–30–aprel. – B. 31–34.
7. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании. – Москва, 2004.
8. Isaeva T.E. Klassifikatsiya professionalno-lichnostnyx kompetensiy vuzovskogo prepodavatelya // Pedagogika. – 2006. – № 9.
9. Jalilova D. Ta'lim jarayonlarining samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati // "Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – Toshkent, 2023–yil 20–aprel. – B. 282–286.
10. Khojjeva Z. The role of co-creation in preparing future teachers for effective collaborative work // International Journal of Pedagogics. – 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.